richa, bunday ulkan zaharli kuya to‘dasi haqida ilgari eshitishmagan, hatto ko‘rishmagan ham. Qop-qora, to‘da-to‘da bo‘lib uchib yurgan zaharli kuyani bir tasavvur qilib ko‘ring. O‘ta g‘alati, ham dahshatli emasmi?” [6;149-b.].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Hikoya bosh qahramoni shaxsni chegaralaydigan qolipdan chiqishga urinayotgan, ammo buning uddasidan chiqa olmayapgan inson obrazidir. Adiba o‘z ijodiy niyatini berishda, yashash ma’nosini izlayotgan obrazni shakllantirishda turli badiiy vositalardan unumli foydalanganligi aniq bo‘ladi. Xususan, muallif o‘z badiiy maqsadini ifodalashda rus olimasi R.E. Kipkeyeva ta’biri bilan aytganda: “...birinchidan, odamzodning tabiatga tirik mavjudot, darddosh sifatidagi murojaati, ikkinchidan, peyzajning inson ko‘nglidagi isyon, buyuk ehtiroslar ramzi sifatidagi o‘rni, uchinchidan, ekzotik manzillar va ekzotik turmush sari o‘z idealini izlab ketayotgan shaxs” [3; 25-b.] kabi xususiyatlar nuqtayi nazaridan yondashadi. Yan Kvi Ja ham koreys adabiyotida azaldan mavjud, inson va tabiat uyg‘unligi, munosabatida xalq hayotining mazmunini keng mushohada etadi. Hikoya zamiriga yashirin ma’nolarni anglash kitobxondan davr tarixini yaxshi bilishni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Абдуллаев Х. Ҳозирги ўзбек романларида талқин муаммоси. Тошкент, 2020.

(2). Камилова С.Э. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикасининг ривожи. Филол. фанл. д-ри дисс. автореф., Тошкент, 2016.

(3). Кипкеева Р.Э. Проблема природы и человека в Севернокавказской литературе: влияние литературных традиций и национальное своеобразие. Автороф. дисс. на соис.канд. филол.наук, Майкоп, 2020.

(4). Тошпўлатов А. Шукур Холмирзаевнинг новеллистик маҳорати. www.journal.flesu.uz. Илмий-методик электрон журнал.

(5). 구모룡, “구체적인 삶에 대한 성실한 관찰”, “문학사상”, 1989.

(6). 양귀자, 원미동 사람들, – 서울, 2012.

(8). http://www.gender.cawater-/

**Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich (Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi;**
**e-mail: sherzodbeksardorbekov@gmail.com)**

## BADIIY MATN MAZMUNINING BUTUNLIGINI TA’MINLASHDA TARJIMA TRANSFORMATSIYASINING O‘RNI

***Annotatsiya.*** *Badiiy tarjima bir tilda yaratilgan matni estetik mazmuniga zarar yetkazmasdan tarjima tilida qayta yaratish jarayonidir. Ma’no va mazmun butun bo‘lishi uchun tilning ma’no anglatuvchi qurilmalari o‘zaro hamohanglik kasb etishi lozim. Tarjima jarayonida qatnashayotgan tillar turli oilalarga mansubligi tufayli asliyat tilining grammatik qurilmalari va lisoniy birliklari hamohangligida yuzaga kelgan ma’noni boshqa tilda ham ayni shu qurilma hamda lisoniy birliklar bilan berishga urinish matn mazmuniga jiddiy zarar yetkazadi. Ayni shu muammolarni bartaraf etish uchun tarjimashunoslikda tarjima transformatsiyasi qo‘llaniladi. Tarjima transformatsiyasi ustida dunyoning bir qancha ko‘zga ko‘ringan olimlari o‘z fikr-mulohazalarini bildirlishgan va uni turli guruhlarga bo‘lishgan. Shunday bo‘lsa ham, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar barcha tillarga birdek tatbiq qilish imkonini misollar bilan atroflicha tekshirish zarur. Quyidagi maqolada E.Xemingueyning “To have or have not” asari va uning o‘zbek tilidagi “Borliq va yo‘qlik” nomli tarjimasida foydalanilgan transformatsiyalar tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *badiiy tarjima, transformatsiya, grammatik tranformatsiya, leksik transformatsiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, antonimik tarjima, qo‘shish, tushurib qoldirish.*

**Сародбеков Шерзодбек Сафорбоевич (преподаватель Ургенчского государственного университета)**

## РОЛЬ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЦЕЛОСТНОСТИ СОДЕРЖАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

***Аннотация.*** *Художественный перевод представляет собой процесс воссоздания текста, созданного на одном языке, на языке перевода без ущерба для его эстетического содержания. Чтобы смысл и содержание текста оставались целостными, семантические конструкции языка должны сохранять гармонию и согласованность. Поскольку языки, участвующие в процессе перевода, принадлежат к разным семьям, попытки передать возникающий смысл с использованием тех же грамматических конструкций и языковых единиц могут нанести серьёзный ущерб содержанию текста. Для решения таких проблем в переводоведении используется трансформация перевода. Многие выдающиеся учёные мира высказывали свои мнения по поводу трансформации перевода и классифицировали её на различные группы. Теории, разработанные учёными, необходимо всесторонне изучить с использованием примеров для их применения ко всем языкам. В данной статье ана-*

*лизируются трансформации, использованные в произведении Э.Хемингуэя "To Have or Have Not" и его переводе на узбекский язык под названием "Borliq va yo'qlik".*

***Ключевые слова:*** *художественный перевод, трансформация, грамматическая трансформация, лексическая трансформация, обобщение, конкретизация, антонимический перевод, добавление, опущение.*

**Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich (teacher at Urgench State University; e-mail: sherzodbeksardorbekov@gmail.com)**

## THE ROLE OF TRANSLATION TRANSFORMATIONS IN ENSURING THE INTEGRITY OF LITERARY TEXT CONTENT

***Annotation.*** *Literary translation is the process of recreating a text in one language into the language of translation without compromising its aesthetic content. To preserve the integrity of meaning and content, the semantic structures of the language must maintain harmony and coherence. Since the languages involved in the translation process belong to different families, attempts to convey the meaning using identical grammatical structures and linguistic units can severely damage the text's content. To address such issues, translation transformations are employed in translation studies. Many prominent scholars worldwide have expressed their views on translation transformations and categorized them into various groups. The theories developed by these scholars need to be thoroughly examined with examples to ensure their applicability to all languages. This article analyzes the transformations used in E. Hemingway's work "To Have or Have Not" and its Uzbek translation titled "Borliq va yo'qlik".*

***Keywords:*** *Literary translation, transformation, grammatical transformation, lexical transformation, generalization, concretization, antonymic translation, addition, omission.*

**Kirish (Introduction).** Badiiy tarjimani amalga oshirish jarayoni tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan nihoyatda murakkab masala bo'lib, bunda badiiy matn mazmuniga zarar yetkazmaslik, yozuvchi maqsadi, muddaosi va uslubini hamda lisoniy vositalarning o'zaro hamohangligini saqlash hamda har ikki tildagi mazmuniy tenglik va ta'sirchanlik muvozanatini buzib qo'ymaslik muhim sanaladi. Barchamizga ma'lumki, bir tildagi lisoniy vositaga ikkinichi tilda aynan teng lisoniy vositani topish mushkul ish, ammo uni topib boshqa ifoda shakllari bilan sintaktik munosabatga keltirib, kontekstual ma'no butunligini saqlash undanda mushkulroqdir. Ayni shu mushkulotni bartaraf etishda tarjima nazariyasining asosiy qonuniyatlarini o'zida mujassam qilgan transformatsiya hodisasi har qanday tarjimani amaliyotda to'g'ri qo'llash imkonini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Tarjimashunoslik fan sifatida tilshunoslikdan ajralib chiqishi 1930-yillarda sodir bo'ldi [1;9–10-b.]. Tarjimashunoslik ajralib chiqishi butun dunyo olimlarining tajima jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni atroflicha tadqiq qilishga turtki bo'ldi. Tarjimashunoslikda tarjima transformatsiyasi yoki tarjima almashtiruvlarini birinchi bo'lib o'rgangan va mazkur terminni fangan kiritgan olim bu J.Katforddir. U tarjima transformatsiyasini "translation shift" ko'rinishida fanga kiritgan va tajima jarayonida yuzaga keladigan o'zgarishlarni unit shift va degree shift ko'rinishida ikkita katta guruhga ajratgan [2;65–68-b.]. Vinay va Darbelnet tajima transformatsiyasini to'rtta tarnspozitsiya, modulyatsiya, ekvivalentlik va moslashtirish sathlarida farqlaydi. Yana bir yetuk olim Nidaning transformatsiya haqidagi g'oyalarida eng asosiy o'rin tutgan tushuncha bu dinamik ekvivalentlikdir: dinamik ekvivalentlik tarjima tilidagi matn uni tarjima tilida o'qigan insonda ham xuddi asliyat tilida o'qilgani kabi hissiy ta'sir ko'rsatishni anglatadi. U tarjima transformatsiyasiga birmuncha umumiyroq qarashda bo'lsa ham, ularni qo'shish, ayirish, o'zgartish kabi guruhlarga ajratadi [5;65–68-b.]. Leuvent-Zvart nazaryasida transformatsiyalar ikki til tizimidagi farqlarni bartaraf etish vositasi sifatida ko'riladi. U tarjimon transformatsiyadan matn tarjima tilida asliyat tilidagidek tabiiy chiqmagan paytlarda foydalanilishi kerakligini ta'kidlaydi [6;151–181-b.]. Bundan tashqari, rus tarjimashunos olimlari konversiv transformatsiyani o'rganishga ham katta ahamiyat qaratishgan [7;215-b.]. Shu jumladan, rus olimlari V.N.Komissarov va Y.I. Retskerlar tarjima transformatsiyalarini leksik va grammatik transformatsiyalarga bo'lib o'rganadilar [8;9-b.].

Tarjima transformatsiyasi haqidagi ilk nazariy qarashlar G'arbda shakllangan bo'lishiga qaramasdan, tarjimashunoslikdagi bu hodisa borasida o'zbek olimlari tomonidan ham bir qancha izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, Q.Musayev, Z.Jumaniyazov, O'.Qo'ldoshev va boshqalar bu hodisa borasida o'zlarining ilmiy izlanishlarida qarashlarini bayon qilganlar. O'zbek olimlari orasidan Z.Jumaniyozov rus olimlari V.N.Komissarov va Y.I.Retskerlarning tasnifini ma'qullab, tarjima transformatsiyalarini asosiy ikkita leksik va grammatik guruhga, o'z navbatida, ushbu guruhlar ham ichki guruhlarga bo'linishini takidlaydi [4;55–65-b.]. Ushbu maqolada biz mazkur transformatsiya tasnifi asosida

E.Xemingueying Q.Yusupova tomonidan ingliz tiliga qilingan "Borliq va yo'qlik" asari tarjimasidagi tarjima tranformatsiyalarini tahlilga tortdik.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ma'lumki, matnni birinchi tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonida matnlar tarkibida turli o'zgarishlarni amalga oshirishga to'g'ri kelinadi va ularni shartli ravishda grammatik va leksik transformatsiyalar sifatida guruhlarga ajratish zarurati paydo bo'ladi.

Grammatik transformatsiya – so'z va so'z birikmalarining tarjimada o'rin almashinuvi, so'z shakllarning almashinuvi, so'z turkumlarining almashinuvi, gap bo'laklarining almashinuvi kabilarni o'z ichiga oladi. So'z va so'z birkmalarining tarjimada o'rin almashinuvi tarjima amaliyotida ko'p uchraydigan holat hisoblanadi. Bunga sabab turli til oilalariga mansub bo'lgan tillarda gap qurilishida ishtirok etadigan gap bo'laklarining turli o'rinlarda kelishidir. Masalan, *Ali maktabga boradi (ega+to'ldiruvchi+kesim). Ali goes to school (ega+kesim+to'ldiruvchi).* So'z shakllaning alamashinuviga esa *uchta kitob – three book**s*** shakli misol bo'la oladi. Bu misolda o'zbek tilida birlik shaklda ishlatilgan so'z ingliz tilida ko'plik shaklini olganini ko'rishimiz mumkin. So'z turkumlarining almashinuvi asliyat matnida ishlatilgan ot so'z turkumiga mansub birlik tarjima matniga olmosh so'z turkumidagi birlik bilan almashtirilishi mumkin yoki, aksincha. Gap bo'laklarining almashinuvi asliyat matni tarkibidagi birikmalar tarjima matnida boshqa sintaktik shaklda kelishi mumkin. Gap bo'laklarining almashinuvi tarjima matnidagi qo'shma gap asliyat matniga sodda gap ko'rinishida o'tganda yoki, aksincha, asliyat matnidagi bosh gap tarjima matnida ergash gap vazifasida kelganda, bog'lovchili gap bog'lovchsiz gapga o'zgarganida yoki, aksincha holatlarda kuzatilishi mumkin.

Leksik tansformatsiya – *konkretlashtitish, umumlashtirish, sababning natija, natijaning sabab bilan almashitish, antonomik tarjima, qo'shish va tushirib qoldirish* kabi turlarni o'z ichiga oladi. Konkretlashtirish asliyat tilida umumiy ma'noda kelgan so'zni tarjima tilida konkret ma'noli so'z bilan berishni anglatadi. Umumlashtirish konkterlashtirishning aksidir. Sababning natija bilan almashishi asliyat matnida ishlatilgan harakatning natijasini tarjima matnida berilishini anglatadi. Sababning natija, natijaning sabab bilan almashtirilishida – tarjimada natija sabab bilan yoki sabab natija bilan almashadi. Antonomik tarjima – tarjimada ko'p qo'laniladigan murakkab lekisik-grammatik transformatsiya shaklidir. Ayrim paytlarda tarjima matnining tabiiy jaranglashi uchun ba'zi bir leksik birliklarni qo'shib yoki tushirib qoldirishga to'g'ri keladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** So'z va so'z birkmalari o'rnining tarjimada almashinuvi. Tarjimonlik transformatsiyasining bir turi deb sanalgan ushbu almashtirish turida biz tarjima matnida asl matnga nisbatan til elementlarining ketma-ketlik tartibining o'zgartirilishini tushunamiz. Masalan, *"The nigger(1) was lying(2) in the middle of the load of sacked liquor (3) with his leg up(4)."Negr (1) oyog'ini ko'targancha (4) likyor qoplar orasiga (3) suqilib olgandi (2).* Yuqoridagi misol o'zbek tili gap tuzish qoidalariga mos ravishda to'g'ri berilgan. Biroq, guvohi bo'lganimizdek, tarjimada bu gap tarkibidagi so'zlar joylashuvi, asliyat tilidagi so'zlar ketma ketligidan farq qiladi.

So'z shakllari almashtiruvi. Ikkala tilda bir xildek ko'ringan grammatik kategoryalar, aslida, o'z ma'nolarining hajmi, vazifasi va leksik materiallarini qamrab olish jihatidan hech qachon bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Masalan: *There were eight bullet hole**s*** *through the cockpit splintered wide. Sakkiztacha otilgan o'q kayuta devorlarida keng teshik hosil qilgandi.* Bu misolda ko'rishimiz mumkinki, ingliz tilida ko'plik shaklda kelgan *hole**s*** ***(teshik**lar)*** so'zi kontekst talabi va o'zbek tili normalaridan kelib chiqib, "teshik" so'ziga, birlik shakliga o'zgartirilgan.

So'z turkumlari almashtiruvi. Ko'p hollarda olmosh o'rniga tarjima tilida ot qo'llaniladi yoki, aksincha, ot o'rniga tarjima tilida olmosh ishlatiladi. Masalan: *Then* ***he*** *went back and down into the cockpit. Shundan so'ng* ***erkak*** *ortiga qaytdi-da, kalyuta ichiga tushdi.* Bu misolda ingliz tilida ishlatilgan **he** olmoshi o'r-niga o'zbek tilida ot so'z turkumiga tegishli **erkak** so'zi qo'llanilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Gap bo'laklari almashtiruvi. Gap bo'laklarini almashtirganda asl matn so'zlari va so'z birikmalari tarjima tilida boshqa sintaktik funksiyada qo'llaniladi. Masalan: *I can't stand this pain and cold, I tell you. Og'riq va sovuq jonimdan o'tib ketdi, deyapman.* Bu gapda ingliz tilida to'diruvchi vazifasida kelgan pain and cold so'zi o'zbek tilidagi gapda ega vazifasida kelganini ko'rishimiz mumkin.

Qo'shma gapda sintaktik almashtiruv. Qo'shma gapda sintaktik transformatsiyalarning quyidagi turlari uchraydi: sodda gap qo'shma gapga almashtiriladi; qo'shma gap sodda gapga almashtiriladi, bosh gap ergash gapga yoki, aksincha, ergash gap bosh gapga almashtiriladi, ergashish bog'lanishi bilan almashtiriladi; bog'lovchili bog'lanish turi bog'lovchisiz bog'lanish turiga almashtiriladi. Masalan: *Can chinamen talk?" Pancho said, pretty nasty. Xitoyliklar-chi, ular ham gullab qo'yadimi? – dedi Pancho g'azab bilan.* Ingliz tilida *Can chinamen talk?* sodda gapi o'zbek tiliga *Xitoyliklar-chi, ular ham gullab qo'yadimi?* so'roq

intonatsiyasi bilan bog‘lovchisiz bog‘langan ikkita mustaqil gapdan tashkil topgan murakkab qo‘shma gap orqali ifodalangan.

Yuqorida takidlangani kabi tarjima jarayonida amalga oshiriladigan barcha transformatsiyalar shartli ravishda ichki guruhga bo‘linadi. Quyida biz leksik almashinuvlar va ularning ichki bo‘linishlarini misollar orqali ko‘rib chiqdik. Almashinuvning bu turidan asl matn tilining leksik birliklari (so‘zlari va so‘z birikmalari) tarjima tilida bo‘lmagan paytda tarjima tilida matn mazmuniga mos boshqa so‘z va birliklar qo‘llanilishini keltirishimiz mumkin. Bunda, asosan, uchta turdagi alamashtiruvlar kuzatiladi: konkretlashtirish, umumlashtirish hamda sabab-natija munosabatlariga asoslangan almashtiruv.

Konkretlashtirish. Asliyat tilida o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan so‘zlar zamon va makon omillari tufayli tarjima tili o‘quvchilariga tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Tarjima tilida ayni shu so‘zni qo‘llash matnning mujmal ma’no kasb etishiga olib kelishi mumkin. Bunday holda asliyat tilidagi so‘zni tarjima tilida biroz ma’nosi torroq yoki konkret so‘z bilan berish kerak bo‘ladi. *As they turned out of the door to the right, I saw a closed car come across the square toward them. Yigitlar qahvaxonadan chiqib o‘nga burulgan zahoti maydon tomondan bir zirhli mashina ular tomon shitob bilan bostirib kelayotganiniga ko‘zim tushdi.* Bu gapda ingliz tilida berilgan *closed car – zirhli mashina* shaklida konkret tushuncha bilan berilganini ko‘rishimiz mumkin. *The nigger came on board with the bait and we cast off and started out* ***the harbor****, the nigger fixing on a couple of mackerel; Xo‘rak olib kelgan habash qayiqqa o‘tirishi bilan biz suzib ketdik va* ***Gavanna bo‘g‘ozi*** *tomon ildamladik.* Bu misolda the *harbor* so‘zi *Gavanna bo‘g‘ozi* bilan almashtirib, ular qayerga ketayotgani haqida konkret ma’lumot berishga xizmat qilgan.

Umumlashtirish konkretlashtirishning aksi hisoblanadi. *He gave the negro a coup of water out of a demijohn. U kichkina xumdan bir payola suv olib negrga berdi.* Asliyat tilida ishlatilgan *demijohn* so‘zi ingliz tiliga fransuz tilidan kirib kelgan bo‘lib, bo‘yin qismi nozik, tag qismi esa juda katta bo‘lgan 8 – 40 litrgacha hajmli vino idishini anglatadi. Bu nomning kelib chiqishi 18-asrga borib taqaladi. Demijohn nomi shakl o‘xshashligi tufayli o‘sha paytlarda qovoqxonalarning birida ishlalgan juda ham semiz Jeanne ismli ayol nomidan olingan degan taxmin bor. Uni qovoqxonaga kelgan erkaklar Dame Jeanne deb chaqirishgan. Keyinchalik tovush o‘zgarishi sodir bo‘lib, vino solishga mo‘ljallangan katta idishlarga demijohn deya atala boshlangan. Yuqoridagi gapning o‘zbek tilidagi tarjimasa ancha umumiy bo‘lgan *xum* so‘zidan foydalanilagan.

Natijaning sabab-sababning natija bilan almashtirilishi. Tarjima jarayonida sodir bo‘ladigan leksik almashtiruv turli tushunchalar orasida mavjud bo‘lgan sabab-natija munosabatlariga asoslangan bo‘lishi mumkin. Asl matnda ma’lum bir ish, harakat, hodisa yoki holatni ifodalovchi leksik birlik tarjima matnida ushbu ish-harakat, hodisa yoki holatni emas, balki uning *sabab*ini ko‘rsatuvchi leksik birlikka almashtiriladi. *“He is necessary” I said. – Habashsiz ishimiz bitmaydi, dedim men.* Bu misolda natija sabab bilan almashtirilgan. *He is necessary* gapining tarjimasi *U bizga kerak* bo‘ladi. Tarjimon esa uning keraklik sababini tarjimada berishni avzal ko‘rgan, *chunki* ***habashsiz ishimiz bitmaydi.***

Antonimik tarjima bu tarjima jarayonida keng qo‘llaniladigan kompleks leksik-grammatik almashinuvdir. Bunda tasdiq grammatik konstruksiya inkor konstruksiyaga, aksincha, inkor konstruksiya tasdiq konstruksiyaga almashtiriladi. Shu bilan birga, asl matndagi biror-bir so‘z uning antonimiga almashtiriladi. Baliqlarning qachon xo‘rak atrofida paydo bo‘lish haqida gapirib turgan Garriy Morganning “But when they come there’s plenty of them” degan gapini tarjimon “Biroq omading kelsa, o‘ljani eplab bo‘lmay qoladi” shakldagi inkor gapdan foydalangan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Yuqoridagi tahlillardan xulosa qiladigan bo‘lsak, transformatsiya tarjima jarayonida keng qo‘llaniluvchi jarayonning muhim qismidir. Undan to‘g‘ri foydalanish nafaqat asarning tarjima tili o‘quvchilariga tushunarli bo‘lishini, balki asliyat muallifi uslubi, u tomondan aks ettirilgan voqelik, asar sujeti va kompozitsiyasi hamda janrini tarjimada saqlab qolishda yetakchi omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):**

(1). Ergash Ochilov, Nilufar Hodjayeva. Tarjima nazaryasi. Toshkent, 9–10-betlar.

(2). Catford, J.C. A Linguistic Theory of Translation. London, Oxford University Press, 1965, p. 64–78.

(3). Newmark, P. About Translation. Great Britain, Longdum Press Ltd. (1991).

(4). Zohid Jumaniyozov. Tarjimaning nazariy va amliy asoslari. “Taffakur bo‘stoni” nashriyoti, 2018, 111-bet.

(5). Nida Eugene Albert. Toward a Science of Translation. Leiden, Brill. 1964, p. 352.

(6). Van Leuven-Zwart, Kitty M. Translation and Original: Similarities and Dissimilarities. University of Amsterdam, 1989, p. 151–18.

(7). Комиссаров В.Н. Слово о переводе. М., Международные отношения. Россия, 1973, 215 с.

(8). Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. М., ЭТС, 2002, 421 с.